



MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi

Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchi

Arzimbetova Bibisara Atamuratovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari fan o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va bilimlarini kengaytirishda o'qituvchining yakka kasbiy rivojlantirish traektoriyasini tuzish va takkomillashtirishda motivatsion tayyorlik bosqishlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuning bilan birga izlanuvchanlik, ijodiy fiklash qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. O'qituvchilar darslarida pedagogik texnologiya va metodlarni qo'llash yordamida darslarni samarali tashkil etish yo'l-yo'riqlari keltirilgan.

Kalit so'zlar:

Pedagogik talablar, ta'lim-tarbiya, o'quvchi mahorati, pedagogik qobiliyati, malaka oshirishda kasbiy mahorat, pedagogik texnologiya, kasbiy rivojlantirish traektoriya, motiv.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi

“Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79 son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktab ta’limi sifatini yaxshilashda fan o‘qituvchilarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga



yoʻnaltirilgan taʼlim tamoyillari, taʼlim-tarbiya jarayoniga oʻqitishning ilgʻor, innovatsion texnologiyalarini samarali joriy etishga ilmiy yondashuvi, sinfni boshqarish, ota-onalar va oʻquvchilar bilan muloqot va hamkorlik qilish, inklyuziv taʼlimni tashkil etish, oʻquvchilar faoliyatini baholash usullari, Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida taʼlim sifatini oshirish mexanizmlari boʻyicha tegishli yangi bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan.

Oʻquv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, oʻz kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilgʻor xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda texnologiyalarni oʻquv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim maktablari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qoʻyiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi. Yuqorida koʻrsatilgan vazifalarni amalga oshirishda fan oʻqituvchilarining **“kasbiy rivojlanish kuni”** va **“Kasbiy rivojlantirish soati”** tadbirlarini joriy qilish amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlar quydagilardan iborat:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilgʻor tajribalarini umumiy oʻrta taʼlim muassasalariga joriy qilish;



o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish;

o'qituvchilarning o'zi ustida mustaqil ishlashi va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishini tashkil etish;

o'qituvchilarni fan va uni o'qitish metodikasiga doir yangiliklar bilan tanishtirish;

o'qituvchilarga o'zaro tajriba almashish, shu jumladan, "Ustoz-shogird" tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;

o'qituvchilarning o'zaro dars kuzatishi, refleksiv amaliyoti hamda maktab asosida malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratib berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida fan o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi. Ushbu vazifalarni tinglovchilarning talab va ixtiyojlarini o'rganish asosida ishlangan bo'lib, fanlarni o'qitish sifati va samoradarligini yanada oshirishini nazarda tutadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlatimiz tomonidan ta'lim sohasi xodimlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa barkamol avlodni voyaga etkazishdek ulug' bir ishdir. Shu sababli, har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalab, voyaga etkazishda nafaqat nazariy bilimlar berish, balki ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarni hosil qilish kata ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasining ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosati, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, fanlarni o'qitishda AKT dan samarali foydalanish savodxonligi va fanlarni o'qitish nazariyasi, metodikasi, ta'lim sifatini baholash xalqaro dasturlari va innovatsion texnologiyalar umumiy o'rta ta'limda STEAM yondashuvi, amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlarini o'tkazish metodikasi, amaliy milliy o'quv dasturi va fanga oid me'yoriy hujjatlar murakkab mavzular asosida ishlash bo'yisha o'quv jaroyanini tashkil etishning zamonaviy usullarini o'z ishiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu esa umumta'lim muassasalari o'qituvchilaridan kasb malakalari, pedagogik mahoratlarini oshirgan holda zamon talabi asosida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish talab etilmoqda. O'qituvchilik kasbi barcha ijtimoiy tizimlarning sharafligi hamda o'ta ma'suliyatli, qiyin va murakkab kasbi hisoblangan. Pedagogik mahorat tug'ma iste'dod yoki nasldan- naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir.

Bu ko'p qirrali faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart ya'ni bir qolibdagi ish usuli emas, balki bu har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchilarning pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur.



Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida ta'lim muassasalariga yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi bugungi kun o'qituvchisiga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Ana shunday buyuk ma'sulyat egalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish davr talabidir.

Hozirgi davrda malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarni o'qitish ko'p hollarda o'quv axborotini o'zlashtirishga va xotirada tiklashga yo'naltirilgan bo'lib, tinglovchilarning faollik ko'rsatishiga qaratilgan bo'lmasdan, ularning kasbiy bilimlarini takomillashuvda ehtiyojlarini shakllantirish va rivojlantirishga, yo'naltirilgan xolos. O'qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarini o'zaro ijodiy hamkorlikka asoslangan refleksiv ta'limiy muhit sifatida o'qituvchilarni mustaqil ta'lim olishga, o'zini-o'zi rivojlantirishga va innovatsion faoliyat ko'rsatishga psixologik jihatdan moslashtirish, ma'naviy boyitish hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malaka zahiridagi kompetensiyalarini hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratish zarur.

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzliksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan o'qituvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim



berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini ilmiy asoslangan innovatsiyalarni tadbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi mavjud noana'naviy muammolarni ijobiy hal etish borasida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi o'ziga xos muhim vazifalarni yuklaydi.

Bu masalaga chuqurroq yondashish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish darkor. Chunki bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni istiqboldagi taraqqiyotning asosini yaratib beradi. Ta'lim-tarbiyaning asosiy ma'suliyati esa o'z navbatida o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Ularning uzluksiz malaka oshirish kurslarida kompetentligini takomillashtirish bu jarayonni tezlashtiradi.

Ustoz o'qituvchining pedagogik mahoratini oshishiga yordam berishga, kasbiy rivojlanishiga yo'nalish bera olishga, nazariyani amaliyot bilan bog'lay olishga, o'qitishning zamonaviy metodlarini o'zining va jamoadagi faol o'qituvchilarning darsi orqali ko'rsata olishga tayyor bo'lishi lozim. Shuningdek ustoz yaxshi tinglovchi bo'lishi, do'stona muhitni yarata olishi rivojlantirishga yordam berishi o'qituvchining o'z muammosiga o'zi yechim topishiga imkoniyat



berishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar davomida o'qituvchining tinglovchilar bilan munosabatini ko'radi, dars jarayoni haqida to'la ma'lumotga ega bo'lib, tinglovchilarning imkoniyatlarini bilib oladi.

O'qituvchilarning o'quv jarayoniga yangi g'oyalarni kiritishi uchun, kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatlarga erishishi uchun ularga o'qituvchi tomonidan turli metodik qo'llanmalar berilishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, fanlarni o'qitish metodikasi murakkab o'quv predmetlari qatoriga kirib, katta hajmdagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik aqliy faoliyat majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Hozirgi davrdagi malaka oshirish tizimida yuz berayotgan metodologik o'zgarishlar, fanning o'qitish metodikasini qaytadan tahlil qilishni talab qiladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida ko'rinadi. Shuni e'tirof etish kerakki, o'qituvchining obro'si faqat uning o'zi uchungina emas balki, yosh avlodning istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining obro'si bo'lsa, yuqorida qayd qilganimizdek, ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liq bo'lsa ikkinchi tomondan, jamoat tashkilotlarining mansabdor shaxslarining o'qituvchi obro'sini ko'tarish borasidagi g'amxo'rlikiga ham bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganiga ham bog'likdir. Qobiliyat bo'lsa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi.



Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqealikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi kerak. Shu bilan birga, o'z kasbiy, mahoratini oshirib borishi, buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik, psixologik va boshqa jihatlarini puxta o'rganishga harakat qilishi, o'zi ishlab turgan maktab muhitini va istiqbollariga eng muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi zarur.

Eng asosiysi esa, malaka oshirishda barcha o'rganganlarni o'quvchilar bilan darslarda hamda boshqa ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda yuksak mahorat bilan qo'llay olish zarurligi hozirgi kun talabidir. Bunda barcha ta'lim muassasalari va pedagog xodimlar shu vaqtgacha ko'plab, yuqori samaradorlikka erishib kelayotgan o'zlariga xos ta'lim tarbiya metodlari, shakllaridan voz kechishlari va faqat qaysidir pedagogik texnologiya turini qo'llashga o'tishlari kerak degan xulosaga kelmasliklari lozim.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash orqali o'qituvchining haqiqiy o'qituvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni o'quvchini o'qitishi emas, o'quvchilarning bilimlarini o'rganishi, o'zlashtirishi bo'yicha qiyin mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan metod va



texnologiyalardan samarali qo'llash orqali o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishiga erishishdan iborat.

Ta'lim rivojlanishi uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o'zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o'qituvchilarda o'zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o'quv mashg'ulotlari, o'quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta'siri bo'yicha bir qator amaliy tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontent(mazmun)ga e'tibor, faol o'rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok.

O'rganishlarimizga ko'ra, bizningcha, o'qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivatsiyasi bo'lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantiradi.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiyasi ma'lum bir ta'lim tashkilotining ta'lim amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zarur shartidir. Ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o'qituvchining to'g'ri rivojlanayotgan motivatsion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo'nalishidir. Har bir sohada



bo'lganidek, xalq ta'limi sohasida ham kadrlar malakasini oshirish va ba'zan ularni qayta tayyorlash davlatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvofiq, shuningdek, pedagoglarning shaxsiy talab va ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini chuqurlashtirish, boyitish, kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi.

Xalq ta'limi hodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kurs tinglovchilarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim sanaladi. O'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta'minlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarning oshirilishiga erishiladi. Malaka oshirish jarayoni maqsadining aniq va puxta belgilanishi, o'qituvchilarning ehtiyojlariga asoslanganligi uning muvaffaqiyatini ta'minlashga sharoit yaratadi. Bunda shaxsdagi motivatsiya ko'rinishlari hamda o'z-o'zini rivojlantirishga individual yondashishi, shuningdek, o'z maqsadlarini, rejalarini jamiyat, tashkilot va jamoa rejalariga bog'lay olishi yanada zaruriy shartdir.

Shu o'rinda individuallik, individuallashtirish, trayektoriya tushunchalariga izoh berib o'tsak. Chunki, malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, mavjud trayektoriya asosida harakatga yo'naltirish muammolari o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim muassasalari uchun dolzarb.



Ya'ni, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o'quv materiali, axborotlarni o'zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko'nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo'ladi. Bunday holatda individuallik o'qituvchida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Yakka kasbiy rivojlanish trayektoriyasi Xalq ta'limi hodimlarining kasbiy rivojlanish muhitining chegaralari, imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qituvchilarda o'zligini anglash, namoyon qilish, motivlarini mustahkamlash, motivatsion tayyorlik kompetentligini, shaxsiy-kasbiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini ongli tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning individual imkoniyatlari, alohida o'ziga xosliklari, kasbiy qiziqishlari, qiyinchiliklari, ehtiyojlari, tajribasi, malaka darajasi, shaxsiy motivlari va ijtimoiy mavqeyini inobatga olishga xizmat qiladi.

O'qituvchining yakka kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan ichki motivatsiya, o'zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va o'sish nuqtalarini oldindan mo'ljal olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi.

O'qituvchining olib borayotgan faoliyati, kasbi va o'quvchilaridan kutadiganlari unda motivlar paydo bo'lish sabablarini izohlasa, uning kasbiy rivojlanish maydonini individual trayektoriyasini yaratishga bo'lgan ishtiyoqi



uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini belgilaydi hamda o'ziga xos qarashlarni vujudga keltiradi. uzluksiz kasbiy rivojlanishda birlamchi sifat har bir o'qituvchining o'ziga xos individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining mavjudligidir.

Yakka ta'lim trayektoriyasi malaka oshirish muhitining chegaralarini, imkoniyatlarini kengaytiradi, pedagoglarda motivlarining mustahkamlanishi, kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, pedagoglarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari, shaxsiy motivlari, tajribasi, malaka darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi

Foydalanigan adabiyotlar

1. O'qituvchi nashriyot-matba ijodiy uyi. Toshkent 2012 -y.
2. A.Mavlanov, S.Abdalova, L. Yusupova «Zamanoviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi» Toshkent 2010-y.
3. A.Yunusaliyev «Fizika» universal qo'llanma Toshkent 2015-y.
4. Ziyonet.uz
5. t.me/talimda "Ta'lim yangiliklari"